



"MAKORIM UL-AXLOQ" ASARINING ADABIYOTIMIZDAGI BADIY
QIYMATI

Muborak O'rozova

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

Muborakorozova2005@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada asosiy e'tibor "Makorim ul-axloq" asarining mazmun-mohiyatiga qaratilgan bo'lib, bu asarning yaratilishiga ilhom manbayi bo'lgan, o'zbek tiliga tamal toshini qo'ygan Alisher Navoiy shaxsiyati va Xondamirning ustoziga bo'lgan hurmati tahlil qilingan. Shuningdek, asarda keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, Navoiy shaxsiyatida qanday shaxs yashagani batafsil ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Xondamir, "Makorim ul-axloq" asari, Alisher Navoiy, didaktik adabiyot, hikoya, xotira, zamondoshlar fikri.

Abstract: This article focuses on the content and significance of the work Makorim al-Akhlaq, analyzing the personality of Alisher Navoi — the spiritual inspiration behind the work and a foundational figure in the development of the Uzbek language. The study explores Khondamir's deep respect and reverence for his mentor Navoi, which served as the basis for the creation of this didactic treatise. Drawing upon the narratives and insights presented in the text, the article also offers a detailed depiction of Navoi's character and moral stature.

Keywords: Khondamir, Makorim al-Akhlaq, Alisher Navoi, didactic literature, narrative, memory, contemporaries' opinions.

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется содержанию и сути произведения «Макарим аль-ахляк». Анализируется личность Алишера Навои — вдохновителя создания этого произведения и основоположника узбекского литературного языка, а также глубокое уважение Хондамира к своему учителю. На основе сведений, приведённых в трактате, подробно раскрывается, каким человеком был Навои в глазах современников и самого автора.

Ключевые слова: Хондамир, произведение «Макарим аль-ахляк», Алишер Навои, дидактическая литература, повествование, память, мнение современников.

O'zbek adabiyoti insoniy komillik, axloqiy poklik va ma'naviy qadriyatlarni tarannum etuvchi ko'plab asarlar bilan boydir. Ana shunday durdona asarlardan biri — Xondamir qalamiga mansub "Makorim ul-axloq" risolasidir. Ushbu asarning o'ziga xos jihati uning mazmuni bilangina emas, balki kimga bag'ishlangani va qanday ruhda yozilgani bilan ham e'tiborga loyiqdir. Xondamir bu risolani o'z ustoziga chuqur hurmat bajo keltirgan holda, buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiyga bag'ishlagan. O'zi bu haqda shunday deb aytgan:



"... oliy hazrat Nizom ul-haq val-haqiqat vad-dunyo vad-din Amir Alisher... ning inoyat nuri va mehr-muhabbat quyoshi faqir banda va kichik zarra bo'lmish Xondamir taxallusi bilan mashhur bo'lgan kamina G'iyosiddin ibn Humomiddin ... boshida toblandi. [Bu faqir bandaning] mavjudlik niholi bolalik chog'laridan yigitlik davrining oxiriga qadar ul hazratning lutf va ehson arig'i yoqasida unib-o'sdi. "Ne'mat berguvchiga shukr qilmoqlik vojibdir", degan naqldan kelib chiqqan holda, uning bergan cheksiz ne'matlaridan ayrimlarining shukrini ado qilishning uddasidan chiqish uchun qanday xizmatga bel bog'lagan ekan, degan fikr hamisha ko'ngildan o'tar va xayolda charx ular edi. Axiyri san'at ulug'ligi osmoni quyoshiga sano o'qishdan boshqa hunarim bo'lmagam men banda... asar yozishga kirishdim va uni "Makorim ul-axloq " deb atadim".²⁹

Mazkur asarning qiymati juda yuqori, negaki g'azal mulkining sultoni sanalmish Alisher Navoiy hayoti haqidagi eng ishonchli va haqqoniy ma'lumotlar u kishi bilan yurib, suhbatda bo'lib, yashagan shogirdi tomonidan yaratilgandir. Bu asarning qurilishi, ya'ni kompozitsiyasi o'ziga xos tarzda qurilgan. Asar tarkibi muqaddima, o'n maqsad va xotimadan iborat. Har maqsad ortida keltirilgan fikrlar asnosida biz mutafakkir shaxsiga xos yuksak insoniy sifatlar: uning hayotdagi aqidasi, odam va olam hodisalariga munosabatlari, yurish-turishlari, aytgan gaplari, qabul qilgan qarorlari, kishilar bilan munosabati, muomalasi, davrada o'zini tutishi, qanday sharoitda qanday so'zlashi, diniy dunyoqarashi kabi sof va samimiy tuyg'ulari bilan yaqindan tanishamiz. Xondamir dinda ham, ilmida ham, ijodda ham mohir bo'lgan shoirimizning hayotidan lavhalar keltirib har bir insonni shunday bo'lishlikka da'vat etadi. Negaki Navoiy dindan yetarlicha boxabar bo'lganligi sababli Ollohni yaxshi tanigan, shuning uchun ham birovning haqini yemagan, birovga zulm qilmagan, birovning ko'nglini zarracha o'ksitmagan. Bunday insonning hayoti, albatta, biz uchun o'rnakdir. O'n maqsadda o'ndan ortiq insoniy sifatlar haqida gapirar ekan, mana shu sifatlarni o'zida mujassam etgan shaxs el ardog'ida ekanligini uqtirmoqchi bo'ladi. Fikrining isboti sifatida esa har maqsad so'ngida Navoiy hayotidagi turli xil voqealarga asoslangan hikoyalar keltiradi. Hikoya - epik turning kichik shakli. Hikoya, odatda, qahramon hayotidan bitta(ba'zan bir-biriga uzviy bog'liq, qisqa muddat davomida kechgan bir necha) voqeani qalamga oladi.³⁰

Masalan, mehribonlik va rahmdillik deb nomlangan yettinchi maqsadda inson uchun eng ulug' fazilat mehribonlik va rahmdillik ekanligi keltirilgan, chunki ulardan-da yuksak fazilat bo'lganida edi olamlar robbisi Allohga nisbatan mehribon va rahmdil sifatlari qo'llanilmagan bo'lardi. Shu sababli ham har bir ishimizni boshlashdan avval mehribon va rahmdil Alloh nomi bilan boshlayman degan jumlaning ishlatishimiz ham bejiz emas (Bismillahir rohmanir rohiym - بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ). Bu maqsadda Alisher Navoiyning namoz o'qiyotganlarida yelkasidagi chumolini ko'rib qoladi va namozini tugatgan zahoti hech kimga gapirmasdan masjiddan chiqib ketadilar. Tahorat olgan joyiga borib, chumolini

²⁹ G'iyosiddin Xondamir. "Makorim ul-axloq ". Yoshlar nashriyoti uyi. Toshkent. 2018.181,182-b

³⁰ D.Quronov va boshqalar.Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent. "Akademnashr" 2013. 402-b





o'z uyiga qo'yib yuboradi. Qaytib kelgandan keyin shogirdlari nega darrov shoshilinch chiqib ketganini so'raganlarida, Navoiy qilgan ishini aytib bergandan so'ng, aziyat bermaslik uchun hattoki chumoliga ko'rsatilgan bu ehtirom va rahm-shafqatni eshitib shogirdlarining ko'ziga yosh kelgani hikoya qilinadi.

To'qqizinchi maqsad- "Saxiy garchi fosiq bo'lsa ham, do'zahga kirmaydi. Baxtli garchi Obid bo'lsa ham, jannatga kirmaydi", deb aytilgan sahih hadisga muvofiq eng go'zal xulq va eng yaxshi odob saxiylik va ochiqqo'llilik hisoblanishi haqida. Hatto Ahmad Lutfi Qozonchining "Saodat asri" asarida ham keltirilishicha, payg'ambarimiz vafoti oldidan uyida mavjud bo'lgan jamiki 7 tangani ham muhtojlarga tarqatishni buyuradi. Bu bilan payg'ambarimiz bizni to'g'ridan to'g'ri saxovatga da'vat etgan. Bu maqsadda esa quyidagicha hikoyat keltirilgan:

Hijriy-qamariy 905-yil Muhsin Mirzo Sabzavor qal'asiga xalq uchun g'alla zahira qilishni buyuradi. Biroq u viloyatda g'alla hosili odatdagidan kam bo'ldi. Shunda amirlar shohga Navoiyning g'allasi ko'p ekanligi va xalq uchun qarzga so'ralsa, berishi mumkinligi haqida xabar beradi. Bu gaplar Navoiyga yetib kelganda, Navoiy o'z g'allasini qarzga emas, balki shundaydiga ham berib yuborishga tayyor ekanligini aytadi. Shunda shoh shoirning bu xatti-harakatiga va saxiyligiga tahsinlar o'qiydi.

"Makorim ul-axloq"da Navoiyning cheksiz darajadagi qo'li ochiq va saxiyligi faqat muhtoj odamlargagina emas, balki podshoh saroyi ehtiyojlariga ham davlatini ayamaganini: "Shunday holatlar ham ko'p yuz berganki, Sohibqiron Sulton saroyi amaldorlari ayrim zaruriy xarajatlar uchun katta miqdordagi pulni (soliqlar sifatida to'lash uchun) xalq zimmasiga yuklashmoqchi bo'lishganida, qabil dengizday keng bo'lgan bu Amir xalq qilgani qolmasligi va bu narsa saltanat qasri poydevorining larzaga kelishiga sabab bo'lmasligi uchun uni o'z xazinlaridan to'lab yuboradilar"³¹, – deya tasvirlaydi. Hazrat Navoiyga xos bunday oliyjanob xususiyatlardan xabardor qilish har bir o'quvchiga ikki jihatdan ijobiy ta'sir qiladi: birinchidan, bola Alisher Navoiyda bo'lgani kabi fazilatlariga ega bo'lishga intiladi, ikkinchidan, shoir bitgan asarlaridagi qahramonlaridagi ezgu sifatlarni tushunishi va qabul qilishi osonlashadi.³²

Ushbu maqoladan xulosam shuki, asarda shoir, davlat arbobi va sohibi ehson Alisher Navoiy haqida tarixiy, siyosiy va badiiy ma'lumotlar o'z aksini topgan. Shuning uchun ham bu asar faqat tarixiy manba sifatida emas, balki didaktik hamda badiiy-publitsistik asar sifatida ham qadrlanadi. Bundan tashqari Xondamir ushbu asar orqali Navoiyning buyuklik darajasini, uning axloqiy komillik va insoniy fazilatlar borasidagi qarashlarini qadrlagan holda, u kishining shaxsiyati va hayot yo'lini maqtov emas, balki ibrat sifatida tasvirlaydi. "Makorim ul-axloq"ning o'rganilishi, ayniqsa, bugungi kunda yoshlarga ma'naviy mezon va axloqiy yetuklik yo'lida yo'lko'rsatkich bo'la oladi. Shu bois, bu

³¹ Fitrat. Tanlangan asarlar 11 jild. Toshkent Ma'naviyat. 2000. 256-b

³² Ubaydullayev Normuhammad. "Makorim ul-axloq" asarida Navoiy hayotiga chizgilar. Maqola. 2024





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



asarning adabiyotimizdagi o'rni alohida qadrlanishi, uni o'rganish esa ustozga sadoqat, ma'naviyatga intilish va tarixiy xotirani asrash ramzidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'iyosiddin Xondamir. "Makorim ul-axloq ". Yoshlar nashriyoti uyi. Toshkent. 2018.181,182-b
2. D.Quronov va boshqalar.Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent. "Akademnashr" 2013. 402-b
3. Fitrat.Tanlangan asarlar 11 jild.Toshkent Ma'naviyat.2000. 256-b
4. Ubaydullayev Normuhammad."Makorim ul-axloq " asarida Navoiy hayotiga chizgilar. Maqola. 2024